

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA FAN
TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH**

Umidova Moxira Azimovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

19-umumiy o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy talablar asosida fan to'garaklariga jalb qilish to'g'risida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinfa o'quvchilarini ta'limiga etibor berish yurt kelajagiga etibor berish demakdir.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, interfaol usullar, kasb-hunarga yo'naltirish.

Annotation: this article discuss the involvement of primary school students in science clubs based on modern requirements.

Keywords: extracurricular activities, independent thinking, creative ability, interactive methods, career guidance. Focusing on the education of elementary school students means paying attention to the future of the country.

Kirish: Mamlakatimizda ta'limga bo'lgan munosabatlarni yangi davrga olib chiqish masalasi keng muhokamada bo'lmoqda. "Ta'lif to'g'risidagi qonun" ning qabul qilinishi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi prezident farmoni, Beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi va joriy etilishi orqali yoshlarning bilim olishi va kasbiy shakllanishiga bo'lgan e'tibor yana bir marotaba davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarildi. Bu muhim xujjatlarda yoshlarimizga chuqur bilimlar berish bilan birga kasb-xunarga o'rgatishning yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berildi. Ayrim fan o'qituvchilari sinfdan tashqari mashg'ulotlarni darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan aralashtirib yuboradilar. Vaholanki, darsdan tashqari qilinadigan ishlar o'quv reja asosida, ya'ni darslik talablarini bajarishga qaratilgan bo'lib, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bevosita ishtirok etadilar. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy maqsadi, reja va darslikdan tashqari o'quvchilarga qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiq qila bilishga yordam berishdan iborat. Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlarda ko'rildigan masalalardan yana biri o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan kasb tanlashga yo'llashdan iboratdir Sinfdan tashqari mashg'ulotlar bir tomondan, dars jarayonining uzviy davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarni estetik madaniyatini ivojlantirish va kasb tanlashga yo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi, keng yo'l ochib beradi.

An'anaviy metodikaga ko'ra sinfdan tashqari mashg'ulotlarga o'quvchilar ixtiyorilik asosida jalb qilinishi lozim. Lekin mashg'ulotlarni tashkil etishning ushbu

shakli bir qator ijobjiy tomonlari bilan birga jiddiy kamchiliklarga ham ega. Jumladan, tajribalardan ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarga nisbatan mas'uliyatsiz munosabatda bo'lishi, berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishda intizomsizlik, jamoga aloqador umumiylar maqsadlarni hurmat qilmaslik kabi salbiy holatlar mashg'ulotlarning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur salbiy omil ta'sirini kamaytirish va o'quvchilar extiyojlarini to'laroq qondira oladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dastlab o'quvchialarning qiziqish doirasini belgilab olish hamda ularni estetik madaniyatini rivojlantiruvchi va kasbga yo'naltirish uchun xizmat qiluvchi mashg'ulotlar shaklini to'g'ri tanlash kerak. Buning uchun maxsus so'rovnomalar suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z iqtidorini, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yorqinroq namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Bu hol o'quv dasturida ko'zda tutilganidan ko'ra murakkabroq vazifalar qo'yishga va ularni hal etishga asos bo'ladi. Ixtiyorilik mezonining talab qiziqishlari bilan uyg'un holatda qo'llanilishi o'quvchilar tashabbuskorligi yuqoriqoq bo'lishini ta'minlaydi. Shu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonida o'quvchilarning ma'naviymadaniy fazilatlarini rivojlantirish va kasbga yo'llash ishlarining asosiy vazifalarini bajarish bo'yicha yaxshi natijalarga erishiladi.

To'garak bu- ma'lum bir bilim sohasiga qiziqishni kuchaytiradigan va amaliy faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan o'quvchilarning ixtiyoriy birlashmasi. To'garaklar maktabda to'garak ishlari tizimining bir qismidir. Pedagogik lug'atga ko'ra, to'garak ishlari bolalar uchun qo'shimcha ta'lim shakllaridan biri bo'lib, u turli xil to'garaklar, sektsiyalar va to'garaklarni tashkil etishdan iborat. To'garak ishi talabalar uchun qiziqishlariga asoslanib ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlarga asoslangan, individual tajribasini o'zlashtirish sohasiga aylandi. Bu talabalarga kasbiy o'zini o'zi belgilashda yordam beradi, asosiy tarkibiy qismda olingan bilimlarini, kuchli tomonlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ongli ravishda to'garak ishlari orqali kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bunday ko'nikmalarini bevosita to'garak ishlari orqali shakllantirish, o'quvchilarning biror bir hunarni egallahlarida ko'rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtga qadar to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha saviyada olib borilmasligi, ularni kasb-hunar turlari bo'yicha aniq ma'lumotga ega emasligiga olib keladi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 65% ommaviy kasblarni bilishi to'g'risida ta'kidlagan. O'quvchilarning faqat 25%ni to'garaklarga jalb qilingan. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda ob'ektiv holda turlicha bo'lishi mumkin.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim mакtablarida barcha fanlar yuzasidan uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlarni yuqorida bayon etilgan shaklda olib borishda ishning mazmuniga qarab turli usullardan foydalaniladi. Vaholanki, bajariladigan ishning mazmuni, shakli va qo'llaniladigan metodlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlarining bir butun holda olib borishni ta'min etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard olajanob zalgimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017.- 488b.
2. Sh.M.Mirziyoev. “Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” mavzusida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so'zi”. 2017 y.
3. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim – tarbiya haqida., Tosh., 1992 y.
4. Studentlarga o'quvchilarga kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish. N.Shodiyev Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil. 362
5. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P. Umumiy o'rta ta'lim mакtablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak raxbarlari uchun namunaviy dasturlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPU., 2003. 21 b.